

JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI



Xalqaro huquq fakulteti 2-kurs talabasi Xamzayeva Durdonaning Jinoyat protsessual huquqi fanidan Germaniya va O'zbekiston Jinoyat Protsessual qonunchiligining yozma tahlili


DALILLAR VA ISBOT QILISH: O'ZBEKISTON VA GERMANIYA QONUNCHILIGI TAHLILI



Jinoyat protsessida haqiqatni aniqlash va dalillarning o'рни

Har qanday jinoyat ishini ko'rib chiqishda eng ustuvor vazifa — yuz bergan voqeaning haqiqiy holatini aniqlash va obyektiv haqiqatga erishishdir. Jinoyat protsessining tub mohiyati sodir etilgan jinoyatning barcha tafsilotlarini to'liq va xolis o'rganishdan iborat bo'lib, bu jarayon aybdor shaxsning qonuniy javobgarlikka tortilishini, aybsiz shaxsning esa asossiz ayblovlardan himoya qilinishini kafolatlashi lozim. Mazkur vazifani muvaffaqiyatli





amalgam oshirishda dalillar va ularni isbotlash jarayoni hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, chunki sudning adolatli, qonuniy va asoslangan qaror qabul qilishi bevosita dalillarni to'plash, tekshirish va baholashning qanchalik to'g'ri bajarilganiga bog'liqdir. Jinoyat protsessida dalillar deganda, ishni to'g'ri hal etish uchun muhim bo'lgan har qanday faktik ma'lumotlar tushuniladi. Ushbu ma'lumotlar orqali nafaqat jinoyat sodir etilganligi yoki etilmaganligi, balki ayblanuvchining aybi va ish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa barcha holatlar aniqlanadi. Dalillar dastlabki tergov bosqichidan boshlab, to sud muhokamasigacha bo'lgan barcha jarayonlarda markaziy o'rin tutadi. Shu sababli, ularni qonuniy yo'l bilan to'plash, har tomonlama tekshirish va xolis baholash protsessual faoliyatning eng muhim talablaridan biri sanaladi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida dalillar va isbotlash bilan bog'liq munosabatlar Jinoyat-protsessual kodeksi orqali batafsil tartibga solingan. Mazkur kodeks dalillarning tushunchasi va turlarini belgilab berish bilan birga, ularni yig'ish hamda baholash tartibini aniq ko'rsatib beradi. Bundan tashqari, qonun hujjatlarida jinoyat protsessining qonuniylik, aybsizlik prezumpsiyasi, taraflarning tengligi va sudning mustaqilligi kabi muhim prinsiplari mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu fundamental tamoyillar jinoyat ishlarini adolatli ko'rib chiqish hamda shaxs huquq va erkinliklarini huquqiy himoya qilishda mustahkam kafolat bo'lib xizmat qiladi.

Xuddi shuningdek, rivojlangan huquqiy tizimlardan biri bo'lgan Germaniyada ham dalillar va isbotlash institutlari muhim o'rin tutadi. Germaniya jinoyat protsessual qonunchiligida bu masalalar Germaniya Jinoyat-protsessual kodeksi (Strafprozessordnung - StPO) da tartibga solingan. Ushbu kodeks zamonaviy jinoyat protsessi tamoyillariga asoslanib, dalillarni sud jarayonida taraflarning teng ishtiroki asosida tekshirish va baholashni nazarda tutadi. Germaniya tizimida ayniqsa "**moddiy haqiqatni aniqlash**" (*Amtsermittlungsgrundsatz*) prinsipi markaziy o'rin tutadi, unga ko'ra sud faqat taraflar keltirgan dalillar bilan cheklanmasdan, ish bo'yicha haqiqatni aniqlash uchun barcha holatlarni o'z tashabbusi bilan tekshirishga majburdir. Shu bilan birga, Germaniya Federativ Respublikasining **Asosiy Qonuni** (*Grundgesetz*) adolatli sudlovni ta'minlashda poydevor bo'lib xizmat qiladi. Konstitutsiyaviy darajada belgilangan normalarga ko'ra, har bir shaxs **eshitilish huquqiga** (*rechtliches Gehör*), samarali himoyalani huquqiga hamda **aybsizlik prezumpsiyasiga** ega. Bu fundamental prinsiplar Germaniya Jinoyat-protsessual kodeksida (*StPO*) o'z aksini topgan bo'lib, dalillarni to'plash, ularning maqbulligini tekshirish va sud tomonidan erkin baholash jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston va Germaniya jinoyat protsessual tizimlari kontinental huquq oilasiga mansubligi sababli o'xshash jihatlarga ega bo'lsa-da, ular o'rtasida o'ziga xos farqlar mavjud. Masalan, O'zbekiston tizimida dastlabki tergov bosqichi va unda to'plangan hujjatlar hal qiluvchi o'rin tutsa, Germaniya tizimida asosiy e'tibor sud jarayonidagi **bevositalik** (*Unmittelbarkeit*) prinsipiga, ya'ni dalillarni bevosita sud zalida jonli tekshirishga qaratiladi. Shuningdek, Germaniya tizimida sudning moddiy haqiqatni aniqlashdagi faol o'rni va dalillarni ishlatishdagi qat'iy huquqiy taqiqlar yanada rivojlangan hisoblanadi.

Mazkur ilmiy ishning asosiy maqsadi O‘zbekiston Respublikasi va Germaniya Federativ Respublikasi jinoyat protsessual qonunchiligida dalillar va isbotlash institutining nazariy va amaliy jihatlarini o‘zaro taqqoslash hamda ularning o‘xshash va farqli tomonlarini tahlil qilishdan iboratdir. Shu maqsadda ish doirasida quyidagi masalalar o‘rganiladi:

- **Dalillar tushunchasi** va ularning jinoyat protsessidagi o‘rni;
- **Dalillar nazariyasida isbotlash huquqi** va uning Germaniya hamda O‘zbekiston qonunchiligidagi talqinlari;
- **Isbot qilishning umumiy shartlari** (shubhalarning ayblanuvchi foydasiga talqin qilinishi va moddiy haqiqat prinsiplari);
- **Dalillarni to‘plash usullari** (tergov harakatlari va texnik vositalardan foydalanish);
- **O‘zbekiston (JPK) va Germaniya (StPO) qonunchiligining** o‘zaro solishtirma tahlili.

Mazkur tadqiqot jinoyat protsessual huquq sohasida dalillar institutining ahamiyatini yanada chuqurroq anglash, shuningdek, Germaniya huquqiy tizimining ilg‘or tajribasini o‘rganish orqali milliy qonunchilikni takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Dalillar tushunchasi (*O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi*)


Jinoyat protsessida haqiqatni qaror toptirish va adolatli hukm chiqarishni dalillarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Sud, prokuror va tergovchi sodir etilgan hodisaning asl manzarasini aynan dalillar yordamida tiklaydi. Shu bois, dalillar instituti jinoyat-protsessual huquqining asosi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 81-moddasida dalillarga huquqiy ta‘rif berilgan: unga ko‘ra, dalillar — bu jinoyat ishini to‘g‘ri yakunlash uchun zarur bo‘lgan har qanday faktik ma‘lumotlardir. Ushbu ma‘lumotlar vositasida jinoyatning yuz berganligi, shaxsning unga aloqadorligi yoki aybsizligi, shuningdek, ishni xolis hal qilish uchun muhim bo‘lgan boshqa barcha jihatlar aniqlanadi.

Dalillar bilan ishlash jarayoni — ularni to‘plash, sinchiklab tekshirish va yakuniy baholash — surishtiruv, dastlabki tergov va sud majlisi kabi barcha bosqichlarda davom etadi. Qonunchilikka ko‘ra, dalillar faqat belgilangan tartibda va quyidagi manbalardan olinishi shart:

- Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi hamda guvohlarning bergan ko‘rsatuvlari;
- Mutaxassis va ekspertlarning xulosalari;
- Moddiy (ashyoviy) dalillar;
- Tergov hamda sud jarayonida rasmiylashtirilgan bayonnomalar;
- Ish uchun ahamiyatli bo‘lgan boshqa hujjatlar.

Xulosa qilib aytganda, dalillar jinoyat ishining poydevori bo‘lib, ular orqali qonuniylik ta‘minlanadi va har bir holatga huquqiy baho beriladi



Mazkur manbalar jinoyat ishining barcha muhim holatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Masalan, gumonlanuvchi yoki ayblanuvchining ko'rsatuvlari jinoyat sodir etilishining ayrim tafsilotlarini ochib berishi mumkin bo'lsa, guvohlarning ko'rsatuvlari voqea sodir bo'lgan paytdagi holatlarni aniqlashtirishga yordam beradi. Ekspert xulosasi esa maxsus bilim talab qiladigan masalalarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Moddiy dalillar esa jinoyat sodir etilganligini tasdiqlovchi ashyoviy predmetlar bo'lib, ular jinoyatning izlari yoki vositalarini o'zida aks ettiradi. Bundan tashqari, jinoyat protsessida dalillarni to'plash va ulardan foydalanish qat'iy qonuniy tartib asosida amalga oshirilishi lozim. **Jinoyat-protsessual kodeksining 82-moddasiga** ko'ra, dalillar jinoyat protsessida ishtirok etuvchi organlar tomonidan qonunda belgilangan tartibda to'planadi, tekshiriladi va baholanadi. Ushbu norma dalillar bilan ishlash jarayonining qonuniyligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, jinoyat protsessida dalillarni baholash masalasi ham alohida ahamiyatga ega. **Jinoyat-protsessual kodeksining 95-moddasiga** muvofiq, sud, prokuror, tergovchi va surishtiruvchi dalillarni qonunga va o'zining ichki ishonchiga asoslanib baholaydi. Bunda har bir dalil alohida hamda boshqa dalillar bilan o'zaro bog'liqlikda tekshiriladi. Hech bir dalil oldindan belgilangan kuchga ega emas, ya'ni sud har bir dalilni mustaqil ravishda baholaydi.

Germaniya Federativ Respublikasining jinoyat protsessual tizimi kontinental huquq oilasining klassik namunasi bo'lib, u nafaqat shaxs huquqlarini himoya qilishga, balki sudning ish bo'yicha **moddiy haqiqatni** aniqlashdagi faol o'rniga tayanadi. Germaniyada isbotlash jarayoni asosan **Germaniya Jinoyat-protsessual kodeksi** (*Strafprozessordnung* — *StPO*) hamda mamlakatning **Asosiy Qonuni** (*Grundgesetz*) bilan tartibga solingan.

Germaniya tizimida "**Surishtiruv**" (inkvizitsion) tamoyili (*Amtsermittlungsgundsatz*) amal qiladi. Bu shuni anglatadiki, sud haqiqatni aniqlash uchun faqat taraflar keltirgan dalillar bilan cheklanib qolmasdan, o'z tashabbusi bilan qo'shimcha dalillarni ham to'plashi shart.

Germaniyn Konstitutsiyasining 103-moddasida har bir shaxsning sud oldida **eshitilish huquqi** (*rechtliches Gehör*) mustahkamlab qo'yilgan. Bu prinsipga ko'ra, har bir ayblanuvchi o'ziga qarshi keltirilgan dalillar bilan tanishish va ularga nisbatan o'z fikrini bildirish imkoniyatiga ega.

Germaniya jinoyat protsessida isbotlash subyektlari:

1. **Prokuratura (Staatsanwaltschaft):** Prokuror Germaniyada "dunyodagi eng xolis mansabdor shaxs" sifatida ta'riflanadi. Uning vazifasi nafaqat shaxsning aybini isbotlash, balki uni oqlaydigan holatlarni ham birdek o'rganish va sudda taqdim etishdir. Prokuratura dastlabki tergovni boshqaradi va isbotlash uchun asos yaratadi.

2. **Himoya tomoni (Verteidigung):** Ayblanuvchi va uning himoyachisi (advokat) ayblovga qarshi turish, o'z dalillarini keltirish va prokuratura taqdim etgan dalillarni shubha ostiga qo'yish huquqiga ega. Germaniyada advokat sud jarayonining teng huquqli organi hisoblanadi va "erkin dalillar bahosi" jarayonida faol ishtirok etadi.

3. **Sud (Gericht):** Germaniya tizimida sud markaziy va eng faol subyekt hisoblanadi. Sudya sud majlisida barcha dalillarni bevosita eshitishi va tekshirishi shart (**Bevositalik prinsipi** — *Unmittelbarkeitsgrundsatz*). Sudyaga haqiqatni

aniqlash majburiyati yuklatilgan, shuning uchun u zarur bo'lsa, taraflar so'ramagan guvohlarni ham chaqirishi yoki ekspertiza tayinlashi mumkin.

Germaniya tizimining muhim jihatlari

Germaniyada sud qarori sudyaning "**ichki ishonchi**" (*freie Beweiswürdigung*) asosida qabul qilinadi. Bunda sudya barcha dalillarni mantiqan va erkin baholaydi, biroq u o'z qarorini asoslantirib berishi shart. Shuningdek, Germaniya huquqida "**dalillarni ishlatish taqiqlari**" (*Beweisverwertungsverbote*) tizimi o'ta kuchli rivojlangan bo'lib, inson huquqlari buzilgan holda (masalan, ruxsatsiz tinglash orqali) olingan dalillar mutlaqo yaroqsiz deb topiladi.

Isbot qilishning umumiy shartlari (*O'zbekiston Respublikasi*)


Jinoyat protsessida isbotlash: Huquqiy kafolatlar va asosiy talablar

Jinoyat ishini yuritishda adolatni qaror toptirishning asosi — bu isbotlash jarayonidir. Ushbu jarayon shunchaki ma'lumot yig'ish emas, balki tergov organlari, prokuratura va sud tomonidan amalga oshiriladigan, dalillarni to'plash, tekshirish hamda ularga huquqiy baho berishni qamrab oluvchi murakkab faoliyat. Milliy qonunchiligimizda isbotlash jarayoni shaxs huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bir necha muhim ustunlarga tayanadi.

Isbotlashning eng birinchi va fundamental poydevori — bu **aybsizlik prezumpsiyasidir**. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasi va JPKning 23-moddasiga muvofiq, shaxsning aybi qonuniy tartibda isbotlanmaguncha, u mutlaqo aybsiz hisoblanadi. Bu tamoyil isbotlash mas'uliyatini ayblanuvchi zimmasiga yuklashni taqiqlaydi va har qanday asossiz ayblovga qarshi asosiy huquqiy qalqon bo'lib xizmat qiladi. Jarayonning qat'iy tartibini esa **qonuniylik tamoyili** belgilab beradi. JPKning 11 va 88-moddalariga binoan, barcha protsessual harakatlar faqat qonuniy asosda bajarilishi shart. Agar biron-bir dalil qonun talablarini buzgan holda qo'lga kiritilsa, u o'z kuchini yo'qotadi va sud hukmiga asos bo'la olmaydi. Bu esa isbotlash jarayonida o'zboshimchalikning oldini oluvchi eng muhim filtrdir. Shu bilan birga, isbotlash jarayoni **obyektiv haqiqatni aniqlashga** yo'naltirilishi lozim. JPKning 22-moddasiga ko'ra, tergovchi va sud faqat ayblov faktlari bilan cheklanib qolmasdan, ishning barcha holatlarini (ham ayblovchi, ham oqlovchi) har tomonlama va xolis o'rganishi shart. Bu talab voqeaning asl manzarasini tiklash va xatolarning oldini olish imkonini beradi. Yakuniy bosqichda esa **dalillarni erkin baholash** tamoyili (JPKning 95-moddasi) ishga tushadi. Milliy tizimimizda hech bir dalil sud yoki prokuror uchun oldindan belgilangan ustun kuchga ega emas. Har bir fakt sudya yoki tergovchining ichki ishonchi, mantiqiy tahlili va barcha dalillarning o'zaro bog'liqligi asosida baholanadi. Bu esa sudning har qanday tashqi ta'sirdan xoli holda mustaqil va adolatli xulosa chiqarishini ta'minlaydi.

Isbot qilishning umumiy shartlari (Germaniya Federativ Respublikasi qonunchiligi)

Germaniya Federativ Respublikasining jinoyat protsessual tizimi zamonaviy huquqiy davlat tamoyillariga asoslangan bo'lib, unda moddiy haqiqatni aniqlash va shaxs huquqlarini kafolatlash markaziy o'rin tutadi. Germaniyada isbotlash jarayoni asosan **Strafprozessordnung — StPO** (Germaniya Jinoyat-protsessual kodeksi) hamda Germaniya



Federativ Respublikasining **Asosiy Qonuni** (Konstitutsiyasi) bilan tartibga solinadi. Germaniya tizimida isbotlash jarayoni bir qator fundamental prinsiplarga tayanadi, bu esa sud qarorining obyektiv va adolatli bo'lishini ta'minlaydi.

Birinchi muhim tamoyil — Amtsermittlungsgrundsatz, ya'ni moddiy haqiqatni aniqlash (surishtiruv) prinsipi hisoblanadi. Germaniyada sud faqat taraflar keltirgan dalillar bilan cheklanib qolmaydi. StPO 244-moddasiga ko'ra, sud ish bo'yicha haqiqatni aniqlash uchun o'z tashabbusi bilan barcha muhim holatlarni o'rganishi va kerakli dalillarni talab qilishi shart. Bu prinsip sudning nafaqat hakam, balki haqiqatni qidiruvchi faol subyekt ekanligini anglatadi.

Ikkinchi muhim tamoyil — Unmittelbarkeitsgrundsatz, ya'ni bevositalik prinsipi hisoblanadi. Ushbu tamoyilga ko'ra, sud qarori faqat sud majlisida bevosita tekshirilgan dalillarga asoslanishi lozim. StPO 250-moddasiga binoan, agar biron bir fakt guvohning ko'rsatuviga tayanadigan bo'lsa, ushbu guvoh sud majlisida shaxsan so'roq qilinishi shart (tergov bayonnomasini o'qib berish bilan almashtirishga qat'iy cheklovlar mavjud). Bu sudga dalillarning haqiqiylikini shaxsan baholash imkonini beradi.

Uchinchi muhim tamoyil — Mündlichkeitsgrundsatz, ya'ni og'zaki sud muhokamasi prinsipi hisoblanadi. Germaniya huquqiga ko'ra, faqat sud majlisida og'zaki bayon qilingan va muhokama qilingan ma'lumotlarga sud hukmi uchun asos bo'la oladi. Bu tamoyil sud jarayonining ochiqlikini va barcha protsess ishtirokchilari (prokuror, himoyachi, sudya) dalillarni bir vaqtda mantiqiy tahlil qilishini kafolatlaydi.

To'rtinchi muhim tamoyil — Freie Beweiswürdigung, ya'ni dalillarni erkin baholash prinsipidir. StPO 261-moddasida mustahkamlangan ushbu qoidaga ko'ra, sud dalillarning isbotlovchi kuchini o'zining ichki ishonchi asosida, barcha jarayonlarni har tomonlama tahlil qilib belgilaydi. Germaniyada hech bir dalil (hatto ekspert xulosasi ham) sud uchun oldindan belgilangan majburiy kuchga ega emas. Biroq, sudya o'z hukmida ushbu ishonch qanday shakllanganini mantiqiy va huquqiy jihatdan batafsil asoslab berishi shart.

Beshinchi muhim jihat — Beweisverwertungsverbote, ya'ni dalillardan foydalanishni taqiqlash qoidalaridir. Germaniya huquqiy tizimida inson huquqlari va protsessual normalarni buzgan holda (masalan, ruxsatsiz tinglash yoki bosim o'tkazish orqali) olingan dalillar sud muhokamasidan chiqarib tashlanadi. Bu Germaniya Konstitutsiyasida belgilangan inson qadr-qimmatini daxlsizligi prinsipining bevosita in'ikosidir.

Shunday qilib, Germaniya Federativ Respublikasida isbotlash jarayoni moddiy haqiqatni aniqlash, bevositalik va dalillarni erkin baholash kabi prinsiplar uyg'unligiga asoslanadi. Bu tamoyillar sudning mustaqilligini saqlagan holda, shaxs huquqlarini davlatning asossiz ayblovlaridan himoya qilishga va adolatli sudlovni qaror toptirishga xizmat qiladi.

Jinoyat sohasida dalillarni to'plash va isbot qilish jarayoniga oid Germaniya tizimining ustuvor jihatlarida xulosa qilgan holda berilgan takliflarim.

1. "Bevositalik" (Unmittelbarkeit) prinsipini qat'iylashtirish va sudning faol rolini oshirish Germaniya StPO 250-moddasiga binoan, agar fakt guvohning ko'rsatmasiga tayansa,

u holda guvoh sud majlisida shaxsan so‘roq qilinishi shart. Tergovdagi bayonnomani o‘qib berishga faqat o‘ta istisno holatlarda ruxsat beriladi.

Taklif: O‘zbekiston JPKda sud majlisida ko‘rsatuvlarni shunchaki o‘qib eshittirish amaliyotini cheklash. Sudyaga nafaqat taraflar keltirgan dalillar bilan cheklanish, balki moddiy haqiqatni aniqlash uchun o‘z tashabbusi bilan qo‘shimcha dalillarni talab qilish majburiyatini yuklash lozim. Bu sudning "haqiqatni izlovchi" sifatidagi rolini kuchaytiradi.

2. Dalillarni ishlatishdagi huquqiy taqiqlarni (Beweisverwertungsverbote) tizimlashtirish Germaniya huquqida inson qadr-qimmati va xususiy hayot daxlsizligini buzgan holda olingan dalillardan sudda foydalanish qat’iyan taqiqlangan. Bu shunchaki "nomaqbul dalil" tushunchasidan kengroq bo‘lib, shaxsning fundamental huquqlarini davlatning o‘zboshimchaligidan himoya qiladi.

Taklif: O‘zbekiston qonunchiligida qaysi holatlarda dalil "mutlaqo yaroqsiz" deb topilishi haqidagi mezonlarni Germaniya andozasida aniqroq belgilash. Masalan, ayblanuvchining o‘ziga qarshi ko‘rsatma bermaslik huquqi (nemo tenetur) tushuntirilmagan holda olingan ko‘rsatmalarni dalillar safidan chiqarib tashlash mexanizmini kuchaytirish.

3. "Erkin dalillar bahosi" (Freie Beweiswürdigung) doirasida asoslantirish majburiyatini kuchaytirish StPO 261-moddasiga ko‘ra, sudya dalillarni o‘zining ichki ishonchi bilan baholasa-da, u hukmda har bir dalilni nega ishonchli yoki ishonchsiz deb topganini mantiqiy va ilmiy asoslab berishi shart.


Taklif: JPKning 95-moddasini takomillashtirib, sudyalarga dalillarni baholashda mantiqiy va psixologik tahlilni batafsil yozish majburiyatini yuklash. Bu yuqori instansiya sudlariga quyi sudning qanday mantiq asosida qarorga kelganini nazorat qilish imkonini beradi.

4. Raqamli dalillar va "Elektron jinoyat ishi" tizimiga o‘tish Germaniya hozirda barcha jinoyat ishlari hujjatlarini elektron shaklga (e-Akte) o‘tkazishni yakunlamoqda. Bu dalillarning butunligini va taraflar (ayniqsa advokatlar) uchun materiallar bilan tanishish tezkorligini ta’minlaydi.

Taklif: O‘zbekistonda yagona raqamli dalillar omborini yaratish va tergov bosqichidayoq barcha audio-video materiallarni markazlashgan bulutli tizimga yuklash. Bu dalillarni "orqaga qaytgan sana" bilan o‘zgartirish yoki yo‘qotib yuborish ehtimolini nolga tushiradi.

5. Isbotlash jarayonida advokatning vakolatlarini kengaytirish Germaniyada advokat (Rechtsanwalt) sud jarayonining mustaqil organi sifatida qaraladi va u tergovning ilk daqiqalaridanoq barcha materiallarga to‘liq kirish huquqiga ega.

Taklif: O‘zbekistonda advokatlarga dalil to‘plashda tergovchi bilan haqiqiy tenglikni ta’minlovchi mexanizmlarni berish, xususan, advokat so‘rovi bilan olingan ma’lumotlarni sudda tergov ma’lumotlari bilan bir xil maqomga ega bo‘lishini qonunan mustahkamlash. Zamonaviy jinoyat protsessida raqamli texnologiyalar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli O‘zbekiston jinoyat protsessual tizimida dalillarni raqamlashtirish tizimini yanada rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Xususan, jinoyat ishlari bo‘yicha barcha muhim dalillar — video va audio yozuvlar, elektron hujjatlar, mobil qurilmalardagi



ma'lumotlar hamda raqamli izlar — yagona elektron tizimda markazlashtirilgan holda saqlanishi lozim. Bu tizim dalillarning yo'qolishi, o'zgartirilishi yoki soxtalashtirilishining oldini olishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli dalillarni yig'ish va tahlil qilish bo'yicha maxsus texnik standartlar ishlab chiqilishi zarur. Bu sud va tergov organlarining raqamli ma'lumotlar bilan ishlash samaradorligini oshiradi hamda jinoyat ishlarining ishonchli hal etilishiga yordam beradi.

Foydalanilgan manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (yangilangan tahrir)
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorlari va sharhlari
4. Germaniyaning Asosiy Qonuni (*Grundgesetz*)
5. Germaniya Jinoyat-protsessual kodeksi (Strafprozessordnung - StPO)